

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG’ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O’ZBEKISTONDA RAQS SAN’ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚҮМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Mahmudova Dilafruz Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 61-69

Мехмоналиев Улугбек Эркинжон уғли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ .70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажонова Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O’ZBEKİSTON VA XORİJIY DAVLATLARNING O’RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хайтевич</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ИҚТисодий АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёров Бобур Баходир ўғли</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomtdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i>	
О'zbekiston SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i>	
OLIY TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEHNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i>	
TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i>	
SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i>	
IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i>	
AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i>	
JAMIyatda ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i>	
MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i>	
TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизқулов Ақрам Абдурахмонович</i>	
ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИННИГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i>	
BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i>	
MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i>	
O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Аззамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'rakov Bobir Baxtiyorovich</i>	
IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i>	
NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i>	
ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i>	
MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukha Islom qizi</i>	
SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Toшпулатова Ширин Мухиддиновна</i>	
ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i>	
SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinvich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yulliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY VA КОММУНИКАТИВ QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i>	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nusrultanqizi</i>	
TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i>	
LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i>	
SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLER VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i>	
DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i>	
FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i>	
KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i>	
MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i>	
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i>	
TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i>	
BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIK DAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i>	
UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i>	
TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаrimovich</i>	
СЎЗЛАШУВ НУТҚИННИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i>	
SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLER UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i>	
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i>	
ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi

CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) 416-428

Касимов Нодиржон Содикжонович

ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ 429-438

Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович

ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 439-445

Джалилов Сардор Шавкатович

ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ 446-453

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mirzayev Qodir Toirovich

ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 454-458

Васильченко Ольга Анатольевна

ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 459-463

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ҮҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 464-470

Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna

TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI 471-477

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

ABU ALI IBN SINO QARASHALARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI 478-482

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA 483-486

Raxmanova Dildora Abdulkamid qizi

INGLIZ TILIDA AKADEMİK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOILIYATIDAGI AHAMIYATI 487-492

Rajabiy Aziz Xasanovich

VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI 493-497

Omanov Rashid Sherqobilovich

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH 498-501

Салимов Акром Хайитович

БЎЛАЖАК ҮҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 502-507

Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i>	
СИНЭРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ	
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаева, Азаматов Абдулло Исахўжаса ўғли, Лутфуллина Румия</i>	
<i>Анваровна</i>	
ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА	
ХАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i>	
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ	
КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i>	
TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA	
AHAMİYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI	
OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i>	
JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI	
TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i>	
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER	
TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI	
RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING	
AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH	
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i>	
O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH	
METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbanovich</i>	
MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI	
VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitora Bahromovna</i>	
ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A	
SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i>	
INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV	
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI	
LANGUAGE)	604-616

<i>Tursunova Shahnoza Bekchanovna</i>	
JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'R NATISH	617-622
<i>Atoyeva Gulshoda Rabimovna</i>	
OILADAGI ZO' RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	623-628
<i>Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbanova Aziza Davlat qizi</i>	
JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI	629-635
<i>Jamolova Mokhigul Bakhtiyorovna</i>	
METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES	636-641

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya
huquqi kafedrasи professor v.b., yuridik fanlari doktori.
Email: ikromabdurasulovich@gmail.com

SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLER UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada soliq intizomini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilingan. Soliq intizomini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning nazariy jihatlarini yoritib berishga harakat qilgan. Muallifning xorijiy mamlakatlardan qonunchiligi bo'yicha qiyosiy tahlili maqolaning o'ziga xos jihatlarini aks ettirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, maqolada ushbu sohadagi mayjud muammolar tahlilidan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq intizomi, huquqbazarliklar, soliq majburiyati, soliq to'lovchi, javobgarlik, yuridik javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, jinoi javobgarlik, huquqbazarliklar ob'ekti va sub'ektlari,

Ergashev Ikrom Abdurasulovich,
Tashkent State University of Law
Acting professor of the department of
Administrative and Financial law,
Doctor of Law (DSc)

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF SOME ASPECTS OF LIABILITY FOR VIOLATIONS OF TAX DISCIPLINE

Abstract. This scientific article provides a systematic analysis of the legal basis of legal responsibility for violation of tax discipline. The author tried to illuminate the issue on the theoretical aspects of legal liability for violations of tax discipline. The author's comparative analysis of the legislation of foreign countries served to reflect the special characteristics of the article. In addition, the article develops suggestions and recommendations based on the analysis of existing problems in this sphere.

Keywords: tax discipline, offenses, tax responsibility, taxpayer, responsibility, legal responsibility, financial responsibility, administrative responsibility, criminal responsibility, object and subjects of offenses.

Эргашев Икром Абдурасулович,
Ташкентский государственный юридический университет
и.о. профессора кафедры Административное
и финансовое право, доктор юридических наук

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ АСПЕКТОВ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ДИСЦИПЛИНЫ

Аннотация. В данной научной статье проводится системный анализ правовых основ юридической ответственности за нарушения налоговой дисциплины. Автор попытался осветить вопросы и теоретические аспекты юридической ответственности за нарушения налоговой дисциплины. Проведенный автором сравнительный анализ законодательства зарубежных стран позволил отразить их особенности в статье. В то же время в статье разработаны предложения и рекомендации, основанные на анализе существующих проблем в этой сфере.

Ключевые слова: налоговая дисциплина, правонарушения, налоговая ответственность, налогоплательщик, ответственность, юридическая ответственность, материальная ответственность, административная ответственность, уголовная ответственность, объект и субъекты правонарушений.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N56>

Soliq munosabatlari mamlakatimizda qator qonunlar bilan tartibga solinib, ularga amal qilmaslik esa soliqqa oid huquqbazarlik va uning uchun javobgarlik tushunchasini yuzaga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, unga qarshi kurashish, uning oldini olish va bartaraf etishni qonunchilik instituti orqali amalga oshirish lozimligini taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, soliqqa oid huquqbazarliklar davlat byudjetiga, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xufiyona iqtisodiyot ko'rinishida sodir etiladi. Xufiyona iqtisodiyot esa, qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va iste'molchilarining, shuningdek davlatning iqtisodiy va moliyaviy manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi [1].

So'z soliqqa oid huquqbazarliklar xususida yuritilar ekan, avvalo, bunda uning yuridik xususiyatlariga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Yu.A.Kroxina "Soliqqa oid huquqbazarliklarning quyidagi yuridik xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi: huquqqa xiloflik; aybning mavjudligi; qilmishning jazoga sazovorligi singari" [2].

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini 210-moddasi talablarida esa, soliqqa oid huquqbazarlikning quyidagi zaruriy xususiyatlari keltirilgan: g'ayriqonuniy aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik); qilmishning g'ayriqonuniyligi; aybning mavjudligi; javobgarlikning muqarrarligi [3].

Soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etgan shaxsning aybini aniqlashda qonun hujjatlaridagi barcha holatlar e'tiborga olinishi zarur. Shaxsning soliqqa oid huquqbazarligi uchun javobgarlik masalasi ko'rib chiqilayotganda esa quyidagilarga e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz:

birinchidan, soliqqa oid huquqbazarlik tarkibining mavjudligiga;

ikkinchidan, huquqbazarlik tarkibi mavjud bo'lмаган holda soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikdan ozod qilishga;

uchinchidan, soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikdagi aybini va uni javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlarning mavjudligiga;

to'rtinchidan, soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarga va hakozo.

Umuman, so'nggi yillarda mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida moliya qonunchiligi, ayniqsa soliq qonunchiligining rivojlanishi bilan javobgarlikning yangi ko'rinishi – moliyaviy javobgarlik yuzaga kelmoqda.

Turli ilmiy adabiyotlar, ilmiy izlanishlarda moliyaviy sanksiyalar tushunchasi o'rniga "moliyaviy jazo choralar" atamasi qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda esa, yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini 218-moddasida mazkur tushuncha o'zining huquqiy asosini topdi hamda mazkur modda "moliyaviy sanksiyalar" deya nomlandi. Bevosita mazkur moddaga muvofiq, Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasiidir.

Moliyaviy sanksiyalar Soliq Kodeksning 28 va 29-boqlarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimlar) tarzida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga "soliqqa oid huquqbuzarlik" tushunchasi kiritilgan bo'lib, yuqorida tushunchaning mazmuni yanada aniqlashtirildi. Ya'ni, "soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish" tushunchasi mohiyatiga ko'ra "soliqqa oid huquqbuzarlik" tushunchasidan ancha keng mazmunni ifodalab, o'zida yuridik javobgarlikning barcha ko'rinishlarini ifodalashi mumkin. "Soliqqa oid huquqbuzarlik" esa o'z navbatida "soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzish" ning tarkibiga kiradi, deya e'tirof etishimiz mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlikning huquqiy tabiatni masalasi yuzasidan turli ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. Bir guruh xorijiy huquqshunos olimlar moliyaviy javobgarlikni ma'muriy javobgarlikning bir ko'rinishi sifatida ko'rsatib o'tishgan. Ayrimlari esa, moliyaviy javobgarlikni yuridik javobgarlikning mustaqil ko'rinishi sifatida ifodalashgan [4].

Yuqorida fikrlariga tayangan holda moliyaviy javobgarlikning quyidagi xususiyatlarini keltirib o'tamiz:

birinchidan, moliyaviy javobgarlik – moliyaviy-huquqiy normalarning buzilishi natijasida yuzaga keladi;

ikkinchidan, davlat tomonidan o'rnatiladi va vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan qo'llaniladi;

uchinchidan, javobgarlikning mazkur turi uchun moliyaviy sanksiyalar (jarima va penyalar)ni qo'llash nazarda tutiladi;

to'rtinchidan, javobgarlikning mazkur turi uchun jazo chorasi protsessual tarzda amalga oshiriladi.

Moliyaviy javobgarlikning ta'minlash choralaridan biri – moliyaviy sanksiyalardir. Moliyaviy sanksiyalarning mazmun mohiyati hamda huquqiy tabiatini ochib berishda bir qator olim va mutaxassislar o'z tadqiqot va ilmiy izlanishlarida bu masalaga e'tibor qaratishgan.

Jumladan, Y.A. Kroxinaning fikricha, "Moliyaviy-huquqiy sanksiyalar moliyaviy-huquqiy normalar dispozitsiyasida ifodalangan, moliyaviy majburiyatlarni bajarmaganlik yoki rioya qilmaslik oqibatida maxsus protsessual tartibda qo'llanuvchi moliyaviy-huquqiy normalarning elementidir" [5]. Olima moliyaviy-huquqiy normalarning elementi sifatida u moliyaviy majburiyatlarni bajarmaslik yoki ularga rioya qilmaslik natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlar deb hisoblaydi.

M. Mamasiddiqov "Moliyaviy sanksiya – moliyaviy javobgarlik chorasi va doirasini o'z ichiga olgan, moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi va moliyaviy huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda vakolatli organ (ya'ni, sud) tomonidan qo'llaniladigan, huquqbuzaрга nisbatan mulkiy va nomulkiy ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan moliyaviy javobgarlik normasining majburiy tuzilmaviy elementi tushunilishi lozim [6]", deb hisoblaydi. E.Xojiyev esa moliyaviy huquqiy sanksiyalar – bu moliyaviy javobgarlik normasining tashkiliy qismi bo'lib, moliyaviy javobgarlik doirasini (uning hajmi va chorasini) belgilab beradi, moliyaviy huquqiy munosabatlarning tartibga solish vositalaridan biri hisoblanadi hamda moliyaviy

huquqbuzarlik sodir etilganida vakolatli davlat organi yoki mansabdar shaxs tomonidan qo'llanadi, deb e'tirof etadi [7].

Biz esa, yuqoridagi huquqshunos olimlarning fikrlarini tahlil qilib, ularga tayangan holda, moliyaviy sanksiyalarning quyidagi belgilarini keltirib o'tishimiz mumkin:

- moliyaviy-huquqiy normalarning elementi bo'lib, tegishli moliyaviy majburiyatlarning bajarmaslik natijasida kelib chiquvchi moliyaviy javobgarlikning ta'minlash chorasıdir;
- davlatning vakolatli organlari yoki mansabdar shaxslari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladi;
- mazkur choralarni qo'llash protsessual tartibda amalga oshiriladi;
- pul undirish (jarima va penya) tarzida ifodalanadi;
- moliya-xo'jalik faoliyatidagi qonun buzilish holatlarga nisbatan tatbiq etiladi;
- davlatning moliyaviy manfaatlarini ta'minlash, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga yetkazilgan zarar o'rnnini qoplash maqsadida qo'llanadi.

Shunga muvofiq, mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin, ya'ni moliyaviy sanksiyalar – bu moliyaviy-huquqiy javobgarlik chorasi bo'lib, davlatning moliyaviy manfaatlari doirasini o'z ichiga oluvchi moliyaviy-huquqiy normalarning buzilishi natijasida sodir etilgan huquqbuzarlik uchun huquqbuzarga nisbatan vakolatli davlat organi yoki mansabdar shaxsi tomonidan protsessual tartibda qo'llaniluvchi, huquqbuzarga nisbatan mulkiy va nomulkiy ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan davlat majburlov chorasıdir. Uning harakat doirasini o'z navbatida, moliya sohalarining xususiyatlari, ya'ni byudjetni shakllantirish va ijro etish, pul muomalasi, bank, soliq, valyutani tartibga solish va boshqa munosabatlarning xususiyatlari bilan bog'liq.

Ta'kidlash lozimki, moliyaviy sanksiyalar tadbirkorlik subyektlarini qonunlarga rioya qilish, iste'molchilar huquqlarini ta'minlashda muhim ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida moliyaviy sanksiyalarni qo'llashning yagona faktik asosi hisoblangan soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasiga aniqlik kiritilishi soliq to'lovchilar, huquqni qo'llash amaliyoti va soliq tizimi uchun muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida ham soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalarni qo'llash masalalari takomillashtirilib, rivojlantirilib borilmoqda.

Soliqqa oid huquqbuzarliklar odatda tadbirkorlik faoliyatini tekshirishda aniqlanadi. Tekshirishda aniqlangan, huquqbuzarlik sifatida baholanishi mumkin bo'lgan harakatlar haqiqatan ham huquqbuzarlik sifatida qonunda belgilangan tartibda tan olinishi uchun amaldagi qonunchilikka ko'ra qator instansiyalardan o'tishi lozim bo'ladi. Aynan nizoni sudgacha hal qilish bosqichini shunday instansiyalardan biri sifatida e'tirof etsak bo'ladi. Lekin, ushbu institut sust ishlamoqda.

Misol uchun, "2022-yil birinchi chorak davomida jami 128 ta 230,4 mlrd. so'mlik soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditni natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, 29 ta (23 %) 27,0 mlrd. so'mlik murojaatda soliq to'lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan. Shuningdek, 80 ta (64 %) 47,4 mlrd. so'mlik murojaat bo'yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o'z kuchida qoldirilgan" [8]. Ushbu holatlar Oliy sud tomonidan Plenum qarori asosida tushuntirish berish zarurligini ko'rsatadi.

Soliq sohasida qo'llaniladigan moliyaviy sanksiyalar moliya huquqining boshqa sohalarida qo'llaniladigan sanksiyalardan farqlanuvchi jihatlari mavjud.

Birinchidan, soliq sohasida qo'llaniladigan moliyaviy sanksiyalar faqatgina pul undirish shaklida namoyon bo'ladi;

Ikkinchidan, moliyaviy sanksiyalar faqatgina sud tartibida qo'llaniladi (soliqlar va yig'implarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno);

Uchinchidan, soliq huquqbazarligini sodir etgan shaxslar, ya'ni, soliq huquqi subyektlariga moliyaviy sanksiyalarning bir xilda qo'llanilmasligi;

To'rtinchidan, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan shaxslar tomonidan summalar ixtiyoriy to'lab berilgan taqdirda jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinishi.

Qo'llaniladigan moliyaviy sanksiya huquqbazarlikning oqibatlariga nomutanosib bo'lgan, javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar aniqlangan taqdirda, shuningdek huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olib, sud Soliq kodeksining 28-bobida nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyaning eng kam darajasidan ham kamroq, biroq belgilangan sanksiya eng kam miqdorining 25 foizidan kam bo'limgan miqdorda, sabablar va asoslarni albatta ko'rsatgan holda moliyaviy sanksiya qo'llashga haqli.

Bugungi kunda demokratik davlat qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda bozor munosabatlari asoslangan izchil islohotlarni amalga oshirishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, amaldagi qonunchilikni liberallashtirish muhim o'rinni tutar ekan, bunda, avvalo, soliq intizomini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlik tizimining chuqur ilmiy-konseptual asoslarini ishlab chiqish hamda qonunchilikka sindirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga muvofiq, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish vazifalaridan kelib chiqqan holda soliq intizomini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlik tizimi ilmiy tadqiq etish hamda amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun quyidagi **taklif hamda tavsiyalar beriladi**.

1) Soliq munosabatlari mamlakatimizda qator qonunlar bilan tartibga solinib, ularga amal qilmaslik esa soliqqa oid huquqbazarlik va uning uchun javobgarlik tushunchasini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 210-moddasida soliqqa oid huquqbazarlik tushunchaga ta'rif berilgan va u o'z navbatida soliqqa oid javobgarlikning faktik asosidir. Ammo, amaldagi Soliq kodeksida uning huquqiy mazmuni keltirilmagan.

Bizningcha, amaldagi kodeksda unga quyidagicha ta'rif berilgan holda mazmuniy ifodasi keltirilishi lozim. Ya'ni, soliqqa oid huquqbazarlik – bu soliq munosabatlari ishtirokchilarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzishi oqibatida moliyaviy sanksiyalar nazarda tutilgan, qasd yoki ehtiyyotsizlik natijasida sodir etiluvchi aybli, huquqqa xilof qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir.

2) Soliqqa oid huquqbazarliklar bo'yicha ishlarni yuritishda inson omilini kamaytirib, uni shaffofligini ta'minlash va korrupsiya holatlarini oldini olish maqsadida, soliq hisobotlarini taqdim etmaslik bilan bog'liq huquqbazarliklar Soliq qo'mitasining axborot tizimlari orqali aniqlanib, soliq organlari tomonidan soddalashtirilgan tartibda elektron tarzda (*elektron qaror chiqarish va soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuborish*) ko'rib chiqish tizimini joriy etish lozim.

O'tkazilgan so'rov nomaga natijalariga ko'ra, "Soliq tekshiruviga oid statistik ma'lumotlar rasmiy saytda ochiqlanishi qanchalik to'g'ri?" degan savolga respondentlarning 22% ochiqlanishi noto'g'ri, soliq siriga zid hisoblanadi, 19.3% ochiqlanishi to'g'ri, soliq to'lovchilarning ma'lumot olish huquqi hisoblanadi, 36.5% ochiqlanishi to'g'ri, soliq organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi, 22% ochiqlanishi to'g'ri, soliq to'lovchilarning soliq intizomini ta'minlaydi deb javob bergan [9].

3) Soliq kodeksiga "Ayblilik shakllari" deb nomlangan 210¹-moddani kiritish va ushbu moddada huquqbazarlikning qasddan yoki ehtiyyotsizlikdan sodir etilganligini belgilab berish.

4) Soliq huquqbazarligini sodir etgan shaxsning aybini aniqlashda qonun hujjatlarida belgilangan barcha holatlarning e'tiborga olinishi javobgarlikning yanada adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Ammo amaldagi soliq qonunchiligidagi aybni aniqlash xususiyatlari, jumladan uning shakllari xususida norma mayjud emas. Ya'ni, qilmish huquqbazarlik deb e'tirof etilishi uchun aybli bo'lishi lozim. Ayb esa, o'z navbatida qasd va ehtiyyotsizlik kabi shakllardan iborat bo'ladi. Huquqbazarlik subyektining qilmishini ayblilik masalasini baholashda bu asosiy vositadir.

Shundan kelib chiqib, Soliq kodeksida qilmishning qasd yoki ehtiyyotsizlik natijasida sodir etilishini belgilovchi normani nazarda tutish lozim deb hisoblaymiz. Shundagina soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlik chorasi yanada adolatli tarzda qo'llanilgan bo'lar edi. Zero, adolatlilik tamoyili qonunchiligmizning bosh mezonidir.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. A.S.Jo'rayev, N.A.Ortiqov. Soliq huquqi asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: Ilm ziyo, 2012. – B.121.
2. Xoziyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik. Monografiya. –T., 2006. – B.54-55.
3. <https://lex.uz/docs/4674902>
4. Xoziyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik. Monografiya. –T., 2006. – B.77-78.
5. Крохина Ю.А. Финансовое право России. Учебник для вузов. М.: Норма, 2004. – С.184.
6. Mamasiddiqov M. Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlashda moliyaviy jazolarni liberallashtirishning o'rni. // Oliy xo'jalik sudi axborotnomasi. 2006y., 11-12-son, – B.86.
7. Xoziyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik. Monografiya. –T., 2006. – B.95.
8. <https://soliq.uz/storage/files/September2022/e4e4808283320343018336f2d462000c.pdf>
9. <https://docs.google.com/forms>.
10. Mark Brabazon. International taxation of trust income. (Principles, Planning, Design) Cambridge University Press. United Kingdom, 2019, 369 p.
11. G'iyosov A. Soliqlar va majburiy to'lovlari bo'yicha qarzdorliklarni kelib chiqishi tahlili // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2-son, mart-aprel, 2019 yil. – B. 23-24.
12. Gadoyev E, Kuziyeva N, Ashurova N. Soliq siyosati strategiyasi. O'quv qo'llanma. -T., 2021. – B.13.
13. Nahumury J., Utama W., Suryaningrum D. H. The Compliance of Motor Vehicle Taxpayers: An Experimental Research //Journal of Accounting and Strategic Finance. – 2018. – T. 1. – №. 2.

14. Lomsadze D. G. Tax Morale For Overcoming The Shortcomings Of Shadow Economy //Przedsiębiorstwo we współczesnej gospodarce-teoria i praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 32. – С. 5-17.
15. Майбуров И. и др. (ред.). Налоговая политика. Теория и практика. – Litres, 2022.
16. Изотов А. В. Цифровизация налоговых правоотношений: теоретико-правовой аспект //Финансовое право. – 2021. – №. 1. – С. 28-31.
17. Ермоловская О.Ю., Вертипрахова А.А. Налоговый комплаенс – право, обязанность или моральная норма // Экономическая безопасность. – 2021. – Том 4. – № 3. – С. 685–696. doi: 10.18334/ecsec.4.3.112093
18. <https://www.heritage.org/index/ranking>, Anthony B.Kim, Patrick Tyrrell, Kevin D. Roberts. 2023 index of Economic Freedom. The Heritage Foundation. 2023 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002 202) 546-4400 | heritage.org United States of America. ISBN: 978-0-89195-309-8.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).